



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT XAVFSIZLIK XIZMATI

100170, Toshkent shahri, Do'rmon yo'li ko'chasi, 26

2023 yil «31» oktabr

171 5486

O'zbekiston Respublikasi Adliya
vaziri o'rinbosari M.Ikramovga

170008/2023-86CY-sonli jinoyat ishi yuzasidan

O'zbekiston Respublikasi DXX Tergov boshqarmasi tomonidan Yashnobod tumani IIO FMB xodimlarining harakatsizligi, mansab soxtakorligi holati yuzasidan Jkning 208, 209- moddalari bilan qo'zg'atilgan jinoyat ishi tergov qilinmoqda.

Aniqlanishicha, ayblanuvchi tariqasida jalb qilingan **To'rayev Shohrux Murodqulovich** Qurolli kuchlar rezerviga bo'shatilishi to'g'risida Toshkent shahar IIBning shaxsiy tarkib bo'yicha **2023 yil 01 iyuldagi 78-sonli buyrug'i** qabul qilinguniga qadar Yashnobod tumani IIO FMB 2-sonli IIB JQB tezkor vakili lavozimida xizmat qilgan.

Shuningdek, Sh.To'rayevga ma'muriy va jinoiy sud ishlari yuritish yuzasidan **2023 yil 27 aprelda L- 7066239** raqamli litsenziya, **2023 yil 23 mayda 3263-sonli** advokatlik faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beruvchi, «THE BEST LAWYER» advokatlik firmasi advokati guvohnomasi rasmiylashtirilgan.

Yuqoridagilarga asosan, Sh.To'rayev Yashnobod tumani IIO FMB 2-sonli IIB JQB tezkor vakili lavozimidan bo'shatilmasdan turib, unga advokatlik faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beruvchi **litsenziya** va **guvohnoma** rasmiylashtirilishi qonuniy yoki qonuniy emasligi, u tezkor vakil bo'lgan vaqtda unga muayyan ishni yuritishga vakolatli ekanligini tasdiqlovchi **order** berilgan yoki berilmaganligi yuzasidan xizmat tekshiruvini o'tkazib, to'plangan hujjatlarni bizning manzilga yuborilishida amaliy yordam berishingizni so'raymiz.

Tergov boshqarmasi boshlig'i
adliya polkovnigi

A.Zufarov

**O'zbekiston Respublikasi
Advokatlar palatasi
Toshkent shahar
hududiy boshqarmasi**

100142, Toshkent shahri, Buyuk Ipak yo'li
ko'chasi, 471 Tel.-faks: (998 71) 261 60 04
tashkent@paruz.uz; e-mail: tgpa@bk.ru



**Палата адвокатов
Республики Узбекистан
Территориальное управление
по городу Ташкент**

100142, город Ташкент, ул. Буюк Ипак йули, 471
тел.-факс: (998 71) 261 60 04
tashkent@paruz.uz; e-mail: tgpa@bk.ru

“ 6 ” декабрь 2023 йил
№ 1-10/ 1856 -сон

**Тошкент шаҳар адлия
бошқармасига**

Ўзбекистон Республикаси Давлат Хавфсизлик Хизматининг "THE BEST LAWYER" адвокатлик фирмаси адвокати Тўраев Шохрух Муродкуловичга нисбатан мурожаати ҳудудий бошқарма ҳузуридаги малака комиссиясининг 2023 йил 1 декабрь кунги 16-сонли мажлисида мазмунан муҳокама қилиниб, малака комиссиясининг тегишли қарорига биноан, мурожаатда кўрсатилган масалаларни ҳал этиш малака комиссияси ваколати доирасига кирмаслиги сабабли мурожаат “Ўзбекистон Республикаси Адвокатлар палатаси ҳудудий бошқармалари ҳузуридаги малака комиссиялари тўғрисида”ги Низомнинг 38¹-банди асосида Тошкент шаҳар адлия бошқармасига юборилиши ҳақида қарор қабул қилинди.

Шу муносабат билан, адвокат Ш.Тўраевга оид иш ҳужжатлари йиғма жилди Сизнинг ихтиёрингизга юборилмоқда.

Илова: иш ҳужжатлари 1 жилд _____ варақда.

Бошқарма бошлиғи

Ҳ.И.Б.

М.Рахимов

Toshkent shahar adliya boshqarmasi
kelgan hujjat № 6/638
« 07 » 12 2023y. vaqti

Ўзбекистон Республикаси Адвокатлар палатаси Тошкент шаҳар
худудий бошқармаси ҳузуридаги малака комиссияси мажлисининг

16-сонли БАЁННОМАСИ дан кўчирма

2023 йил 1 декабрь

Тошкент шаҳри

“Ўзбекистон Республикаси Адвокатлар палатаси худудий бошқармалари
ҳузуридаги малака комиссиялари тўғрисида”ги Низомга (рўйхат рақами 1921-сон, 2009
йил 14 март ҳамда Ўзбекистон Республикаси адлия вазирининг 2019 йил 09 январдаги 11-
мх-сонли буйруғи, рўйхат рақами 1921-3, 2019 йил 09 январь) мувофиқ малака
комиссияси

ҚАРОР ҚИЛАДИ:

29. Ўзбекистон Республикаси Давлат Хавфсизлик Хизматининг "THE BEST
LAWYER" адвокатлик фирмаси адвокати Тўраев Шохрух Муродкуловичга нисбатан
мурожаатида кўрсатилган масалаларни ҳал этиш малака комиссияси ваколати доирасига
қирмаслиги сабабли мурожаат “Ўзбекистон Республикаси Адвокатлар палатаси худудий
бошқармалари ҳузуридаги малака комиссиялари тўғрисида”ги Низомнинг 38¹-банди
асосида Тошкент шаҳар адлия бошқармасига юборилсин.

Ушбу қарордан норози бўлган адвокат ва манфаатдор шахсларга малака
комиссияси қарори устидан бир ойлик муддат ичида Тошкент шаҳар худудий бошқармаси
орқали Ўзбекистон Республикаси Адвокатлар палатаси ҳузуридаги Олий малака
комиссиясига ёки судга шикоят қилиш ҳуқуқига эга эканлиги тушунтирилсин.

Раис

Аслига тўғри

Малака комиссиялари котибияти котиби



Ш.Хамраев

М.Самиева